

“BARQAROR IQTISODIY O’SISHNI TAMINLASHDA SOLIQ  
TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI”

Shodiyev Shoxzod Shamsiddino’vich

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi MSc tinglo'vchisi*

**Annotatsiya.** *Soliq to'lovchilarning soliq potenitsali bozor qonunlariga bog'liqligi byudjetni rejalashtirishda soliq potenitsalni e'tiborga olishning murakkabligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligi va ularning ta'sir doirasining kengligi(tezligi), byudjet jarayoni ijrosini ta'minlashi iqtisodiy indikatorlarga bog'liqligi, byudjetning xarajatlarini sarflashning daromadlar miqdoridan kelib chiqishligi, soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning darajasiga qarab o'zgarib borishligi, bozor munosabatlari sharoitida soliqlar iqtisodiyotga ta'sir etishning eng samarali va qulay usullaridan biri sifatida namoyon bo'lishligi kabi omillar soliq tizimida soliqlarni prognoz qilish jarayonini ob'ektiv zaruratga aylantiradi.*

*Ushbu tezisda soliq tizimining iqtisodiy o'sishga tasir jihatlarini va soliq iqtisodiyotda naqadar muhim kategoriya ekanligini yoritilgan*

**Kalit so'zlar.** *Markaziy bank, fiskal siyosat, foiz stavkalari, Davlat byudjeti.*

Soliq solishlar, soliq tarixida muhokamali obektlarning ko'pligiga qaramasdan, ularning hammasi ham ma'lum bo'lmagan, ularning ko'pchiligi munozarali, har xil ko'rinishda, bo'lgan. Boshqaruvchilar va davlatlarning soliq daromadlariga muhtojligining sabablari berib o'tilgan. Lekin soliq to'lash har doim majburiy bo'lgan. Fransiya qiroli Lyudovik XIV ning moliya vaziri Jan – Batist Kolberom soliqning xususiyatlarini qisqa qilib ko'rsatib bergan: Soliqqa tortish san'ati xuddi o'rdakning patina yulishda kam sonli vishillash bilan ko'p miqdordagi patlarga ega bo'lishga o'xshaydi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyliги bilan bevosita bog'liqdir.

Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, norentabel sohaning

ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holatda: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin. Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar quyidagilarni ifodalash mumkin:

a) Soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi parlamentga beriladi;

b) Soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi;

v) Soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

g) Soliq to'lash majburiy xususiyatga ega.

Budjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida budjetga undirilishi tufayli ularga nisbatan bu jarayonda quyidagi tamoillardan foydalaniladi<sup>1</sup>

1) Soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

2) Soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i lozim;

3) Soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

4) Soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

5) Davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

6) Soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak. Budjet orqali iqtisodiyotga quyidagi jihatlarida ta'sir ko'rsatish mumkin:

Budjet daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1) Soliqli daromadlar;

<sup>1</sup> T.S.Malikov, N.H.Haydarov: "Davlat budjeti", o'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya". 2007.

2) Soliqsiz daromadlar;

3) Tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jarayonida avj olgan tub islohotlar moliya-soliq tizimida ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Hozirgi davrida budjet masalasi juda muhim va murakkab masaladir. Har bir hududning rivoji, aholining turmush sharoiti, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila va shaxslarning yetarli darajada ijtimoiy himoya qilinishi, har bir hudud davlat hokimiyat organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qilishga bog'liq, bunda davlat budjetlarga tushadigan soliq va yig'implarning turi miqdorini bilish alohida o'rin tutadi.

Soliqlar davlat tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy usuli sifatida foydalanib, ular vositasida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashtirilgan jamg'armaga jalb etiladi

2021 yilda Davlat byudjeti daromadlari 164,7 trln so'mni tashkil etdi yoki 2020 yilga nisbatan 31,7 trln so'mga (+23,9%) ko'p bo'ldi. Soliq organlari ma'muriyatchiligidagi tushumlar 2021 yilda 127,9 trln so'mni tashkil etdi. Shuningdek, daromadi oshgan xodimlar soni ham ko'paydi.

2021 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 18,9 trln so'mni tashkil etdi (3,8 trln so'mga o'sdi). Xususan, ish beruvchilar to'lov manbaida ushlab qoladigan soliq 17,5 trln so'mni tashkil etdi, o'sish - 3,4 trln so'm.

Quyidagilar tushumlar oshishining asosiy omillaridir:

- Iqtisodiy faollikning tiklanishi;

- Byudjet sektorida eng kam ish haqi miqdorining 2020 yil bilan solishtirganda o'rtacha 12,8%ga oshishi;

- 2020 yilda vaqtincha to'xtatib qo'yilgan byudjet tashkilotlarida moddiy rag'batlantirish to'lovlarining 2021 yil boshidan qisman tiklanishi; xususi sektorida ishlovchilar soni va mehnatga haq to'lash fondining legallashtirilishi. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan byudjetga tushumlar - 396,7 mlrd so'm, bu 2020 yil bilan solishtirganda 110,4 mlrd so'mga ko'p 2021 yilda Davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi bevosita (35,8%) va bilvosita soliqlarning (34,2%) nisbati saqlanib qoldi.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibiga so'nggi uch yildagi soliq siyosati choralarning o'zgartirilishi, ilgari berilgan soliq imtiyozlarining bekor qilinishi, iqtisodiyot sektorlarida olib borilayotgan islohotlar hisobiga soliq bazasining kengaytirilishi, shuningdek xom ashyo tovarlari narxlarining dinamikasi ta'sir ko'rsatdi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish borasidagi choralar samaradorligi mamlakat soliq siyosatida ham o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Soliq, siyosatini takomillashtirish mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi, mulkchilik shaklidagi o'zgarishlar, mahsulotlarga baho belgilash, bank tizimi, pul-kredit siyosatidagi islohotlar bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati takomillashtirilishiga joylarda alohida e'tibor qaratilishi kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo'lmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 2017-yil 6-aprel. O'zbekiston
- 2.Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami. 14-son 213-modda.
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Budjet Kodeksi". 2013-yil 26-dekabr.
- 4.O'zbekiston Respublikasi "Soliq Kodeksi". 2019-yil 30-yanvar.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-iyuldagi "Aksiz solig'iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
- 6.O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida PQ-4086 / 26.12.2018
- 7.S.K. Xudoyqulov. Soliq tizimi. Darslik. T, — «ILM ZIYO» — 2017
- 8.I.A.Azizova Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish: o'quv qo'llanma. 2010. T. 22. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной -М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с
- 9.Malikov T., Haydarov N., "Budjet daromadlari va xarajatlari" O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007-y, - 245 b.
- 10.Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. Darslik - T.: Akadem nashr, 2011. - 472 b.
- 11.Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T